

**1. Bank Kuzatuv kengashining 2022 yil 25 avgustdagi qarori bilan tasdiqlangan
“O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati”dan
ko‘chirma:**

“70. Bank o‘z xodimlari manfaatlarini himoya qiladi va boshqa xodimlarning shubhali hulq-atvori yoki mazkur Siyosatning korrupsiyaga qarshi kurashish talablari buzilgan bo‘lichi mumkinligi haqida vijdonan xabar bergan xodimlarga nisbatan ishdan bo‘shatish, lavozimini tushirish, diskriminatsiya, zulm o‘tkazish, ta‘qib qilish singari o‘ch olish harakatlariga yo‘l qo‘yilmasligini kafolatlaydi”.

**2. Bank Boshqaruvining 2022 yil 10 maydagi qarori bilan tasdiqlangan
“O‘zsanoatqurilishbank” ATBga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-
xarakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish
Reglamenti”dan ko‘chirma:**

“8. Murojaatchining ta‘qib qilinmasligi – Korrupsiyaga qarshi kurashish Komplayens ishonch liniyasi orqali korrupsiyaviy xarakatlar haqida o‘z xohishiga ko‘ra xabar bergan jismoniy va yuridik shaxs, hususan Bank xodimi xabarning mazmunidan qat’iy nazar biron-bir javobgarlikka tortilmaydi”.

**3. Bank Boshqaruvining 2022 yil 10 maydagi qarori bilan tasdiqlangan
“O‘zsanoatqurilishbank” ATBning korrupsiyaga qarshi kurashish menejment
tizimi bo‘yicha Qo‘llanma”dan ko‘chirma:**

“80. Bank korrupsiyaga oid shabhalar yoki korrupsiya faktlari to‘g‘risida xabar berishning xavfsiz va maxfiy tartibini ta‘minlaydi va gumon haqida xabar bergan shaxs ma’lumotlarining huquqiy himoyasi va maxfiyligini ta‘minlaydi.

81. Bank shubhali holatlar haqida xabar berganda ushbu shaxsni har qanday ta‘qibdan himoya qilishni kafolatlaydi.

82. “O‘zsanoatqurilishbank” ATBga aloqa kanallari orqali kelib tushgan korrupsiya faktlari to‘g‘risidagi xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish qoidalari” hujjatida keltirilgan”.